

## **MAHALLIY O'SIMLIKLER EKSTRAKTLARINING YALLIG'LANISHGA QARSHI FAOLLIGINI O'RGANISH**

**Jasurbek Nabiyeu Akbarov Shoxjahon , Muxammedov Iqboljon<sup>\*1</sup>**

**Andijon Davlat Universiteti, Genetika va biotexnologiya kafedrasi, 170100,**

**O'zbekiston, Andijon, universiteti-129, E-mail: agsu\_info@edu.uz**

**[<sup>\*1</sup>xat yozish uchun: E-mail:jasurbeknabiyev865@gmail.com]**

So'nggi yillarda turli xil sog'liq uchun tabiiy manbalarni o'rganish, ayniqsa yallig'lanish kasalliklari uchun katta e'tibor qaratilgan. Yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo'lgan bioaktiv birikmalar orasida o'simlik ekstraktlari alternative manba sifatida ko'rilmogda. Yallig'lanish, tananing shikastlanish yoki infektsiyaga qarshi himoya reaksiyasi, tartibga solinmagan holda ko'plab surunkali kasalliklarning patogeneziga hissa qo'shishi mumkin. An'anaviy yallig'lanishga qarshidorilar samarali bo'lsada, ko'pincha salbiy ta'sirlar xavfini oshiradi [1, 2]. Biz o'z tadqiqotlarimizni yallig'lanishga qarshi faollik ko'rsatadigan o'simliklardan olingan birikmalarga e'tibor qaratdik. Yallig'lanishga qarshi vositalar sifatida: Qoqio't (*Dandelion officinalis*) Oddiy pechak (*Convolvulus*) Parmachak(*Caesius L.*) Oddiy qo'g'a (*Typha orientalis*) Oddiy sho'ra (*Chenopodium vulgare*) ekstraktlaridan foydalanildi. Har qanday terapevtik birikmalarning biologic faolliklari bilan birga ularning miqdor belgilari ham o'rganiladi. O'simlik biomassasi 70% etanolning 1:5 nisbatida 24 soatshekerda 160 ayalana/minut davomida ekstraksiya qilindi. Natija Qoqio't (*Dandelion officinalis*) 60mg, Oddiy pechak (*Convolvulus L*)250mg, Parmachak(*Caesius L.*) 370mg Oddiy qo'g'a (*Typha orientalis*) 50mg Oddiy sho'ra (*Chenopodium vulgare*) 320mgni tashkilqildi. Shuningdek, o'simlik ekstraktlarining yallig'lanishga qarshi faolligini o'rganishuchun 100 mg/ml konsentratsiyada tayorlab olindi. Tajriba uchun olingan barcha o'simliklar ekstraktlari issiqlik bilan induktsiya qilingan qizil qon hujayralari membranasini barqarorlashtirdi. Bunda Qoqio't (*Dandelion officinalis*) 96%va Parmachak(*Caesius L.*) 86% pastroq faollik ko'rsatgan bo'lsa, Oddiy pechak (*Convolvulus L*)86% va Oddiy qo'g'a (*Typha orientalis*) 86% Oddiy sho'ra (*Chenopodium vulgare*) 80% bilan yallig'lanishga qarshi yuqori faollik ko'rsatdi.

Klinik nuqtai nazardan, o'simlik ekstraktlarini yallig'lanishga qarshi vositalar sifatida qo'llash turli xil kasalliklar, jumladan artrit, dermatit, oshqozon-ichak kasalliklari va nafas olish kasalliklari uchun xavfsizdir. Bundan tashqari, ko'plab o'simliklardan olingan birikmalar salbiy dori reaksiyalariga moyil bo'lgan bemorlar uchun muqobildir [3].

Xulosa qilib aytganda o’simlik ekstraktlari yallig’lanishga qarshi faollik ko’rsatdi. Xususan moy chechak o’simlik ekstrakti tarkibidagi yallig’lanishga qarshi biologik faol birikmalari terapevtika sohasidagi ko’plab kasalliklarni davolashda istiqbolli manba bo’la oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Chandra S, Chatterjee P, Dey P, Bhattacharya S. Evaluation of Anti-Inflammatory Effect of Ashwagandha: A Preliminary Study in Vitro. *Pharmacog J* 2012; 4(29):47-9.
2. Sh Rastogi, M Shariq Iqbal, D Ohri. In vitro study of anti-inflammatory and antioxidant activity of some medicinal plants and their interrelationship. *Asian J Pharm Clin Res*, Vol 11, Issue 4, 2018, 195-202.
3. C. Sree Kumari, N. Yasmin, M. Raffiq Hussain and M. Babuselvam. In vitro anti-inflammatory and anti-arthritis property of *Rhizoporamucronata* leaves. *International Journal of Pharma Sciences and Research*. Vol. 6 No.3 2015. 482-485.